



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

10 (48) 2022

МУНДАРИЖА * CONTENTS * СОДЕРЖАНИЕ

SCIENTIFIC-THEORETICAL MEDICINE

<i>Oblokulov A.A., Mukhammadieva M.I.</i>	
CLINICAL AND LABORATORY CHARACTERISTICS OF LIVER CIRRHOSIS PATIENTS OF VIRAL ETIOLOGY WITH SPONTANEOUS BACTERIAL PERITONITIS.....	2
<i>Shadieva Sh.Sh., Habibova N.N.</i>	
DYNAMICS OF ORAL MICROFLORA IN PATIENTS WITH INFLAMMATORY DISEASES OF CHRONIC GENERALIZED PERIODONTITIS AND FUNCTIONAL DYSPEPSIA.....	9
<i>Rakhmatov Olim Bobomurodovich</i>	
STUDYING THE EFFECT OF THE IMMUNOMODULATOR GEPON ON TNF- α IN THE SERUM OF THE BLOOD OF PATIENTS WITH CUTANEOUS LEISHMANIASIS.....	15
<i>Sadiev E.S., Israilov R.</i>	
PULMONARY ARTERY THROMBOEMBOLISM AFTER NODULAR HEART DEFECT SURGERY.....	21
<i>Hamdamova . . . , Rabiev S.N.</i>	
SOMATOMETRIC DATA OF CONSTITUTIONAL FEATURES OF THE BODY SHAPE OF PREGNANT WOMEN.....	26
<i>Valieva M. Yu., Salokhiddinov Z. S., Mamasaliev N.S.</i>	
ANALYSIS OF THE STUDY OF THE CHARACTERISTICS OF THE DETECTION OF PREMIPERATING AND ARTERIAL HYPERTENSION, DEPENDING ON SOME SOCIAL FACTORS.....	34
<i>Alibekov S.O., Salokhiddinov Z.S., Mamasaliev N.S.</i>	
EPIDEMIOLOGICAL FEATURES OF HYPERGLYCEMIA AND MICROELEMENTOSIS IN POPULATIONS OF HIV-INFECTED.....	38
<i>Egamov B.</i>	
MORPHOLOGICAL CHANGES IN THE KIDNEYS IN INFANTS WHO DIED OF PNEUMONIA IN THE NEONATAL PERIOD.....	42
<i>D.M. Mamazhanova., F.I. Shukurov</i>	
FEATURES OF THE HEMOSTASIS SYSTEM IN PREGNANT WOMEN VACCINATED AGAINST COVID-19.....	47
<i>Kh.Z. Akhmedzhanova., X.N. Tursunova., F.I. Shukurov</i>	
STATE OF OVARIAN RESERVE IN WOMEN OF LATE REPRODUCTIVE AGE.....	52
<i>Shaikhova G.I., Turaev F.Sh</i>	
CURRENT STATE OF THE PROBLEM OF USE OF SPECIALIZED PRODUCTS WITH ENHANCED SOY.....	57
<i>Rasulova I.A., Khamdamov A.B.</i>	
DURATION OF IMMUNITY IN CUTANEOUS LEISHMANIASIS.....	64
<i>Mirzaabdullakhozhieva O.U., Zufarova Sh.A., Yuldasheva O.S.</i>	
ANALYSIS OF SERUM INTERFERONS AND IL-28B IN PREGNANT WOMEN WITH CHRONIC VIRAL HEPATITIS B.....	70
<i>Shokirov Kamol Fazlievich</i>	
ADAPTIVE PHYSICAL CULTURE AND SPORT.....	76
<i>Zufarova Sh.A., Mirzaabdullakhozhieva O.U.</i>	
TACTICS OF MANAGEMENT AND TREATMENT OF VIRAL HEPATITIS B IN PREGNANT WOMEN.....	82
<i>Tojiev F.I., Karimov Sh.I., Sharopov S.G., Murtazayev S.M., Azimov A.M., Ismoiluzhayeva K.G.</i>	
OPTIMIZATION OF RESTORATION OF ALVEOLAR DEFECTS OF THE ELEVENTH JUSTICE WITH INDIVIDUAL TITAN CONSTRUCTIONS FOR CONGENITAL CLEFT OF THE PALATE AND LIPS.....	89
<i>Oltieva Malohat, Alieva Dilfuza</i>	
METABOLIC SYNDROME AND INFERTILITY.....	94
<i>Mansurova M.Kh., Nazhmidinov Z.N., Shukurov F.I.</i>	
THE ROLE OF HYSTERORESECTOSCOPY IN THE TREATMENT OF INFERTILITY IN WOMEN DUE TO INTRAUTERINE PATHOLOGY.....	102
<i>Nazhmidinov Z.N., Mansurova M.Kh., Shukurov F.I.</i>	
THE ROLE OF LAPAROSCOPY IN THE DIAGNOSTICS AND TREATMENT OF INFERTILITY IN WOMEN WITH COMBINED PELVIC PATHOLOGY.....	105
<i>Dekhonov K.A., Axmedov Sh.M., Shagiyazova L.M.</i>	
CORRECTION OF THE METOBOLITIC PROCESS IN URONOSTONE DISEASE COMPLICATED BY OBSTRUCTIVE PYELONEPHRITIS IN THE EXPERIMENT.....	109

Мақолалардаги маълумотлар учун муаллиф ва бош муҳаррир масъул.

Таҳририят фикри муаллифлар фикри билан муносиб бўлмаслиги мумкин.

Барча муаллифлик ҳуқуқлари ҳимояланган.

Барча маълумотлар таҳририят ёзма рухсатисиз чоп этилмайди.

Масъул муҳаррир: *Сафоев Б.Б.*
Бадий муҳаррир: *Пулатов С.М.*
Таржимон: *Fайбулаев С.С.*

Теришга берилди 15.09.2022 й.
Босишга рухсат этилди 20.09.2022 й.
Бичими 60×84 ¼.
Шартли босма табоби 47.0.
Офсет қозозида чоп этилди.
Адади 100 нусха.
42-буюргма.
«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
босмахонасида чоп этилди. 100000.
Тошкент, А. Темур кўчаси, 60 А.

«Тиббиётда янги кун» тиббиёт журнали таҳририяти,
Тошкент ш., 100011,
Навоий кўчаси, 30-уй,
тел.: +99890 8061882,
e-mail: ndmuz@mail.ru

Тошкент вилояти Матбуот ва ахборот бошқармасида 2012 йил 16 февралда рўйхатта олинган (03-084-соны гувоҳнома).
Баҳоси келишилган нархда.
Нашр кўрсаткичи 7048.



KECH REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA TUXUMDONLAR ZAXIRASINING HOLATI

X.Z. Axmedjanova, X.N. Tursunova, F.I. Shukurov

Toshkent tibbiyot akademiyasi

✓ Rezume

Maqsad: turli kech reproduktiv yoshdagи ayollarda tuxumdonlar zahirasining holatini qiyosiy baholash.

Material va uslullar. Tadqiqotga 130 nafar kech reproduktiv yoshdagи ayollar kiritildi. Asosiy guruxga turli kech reproduktiv yosh bosqichidagini e'tiborga olib 2 guruxga bo'lindi: 50 nafar 36-39 yoshdagи ayollar (1-gurux) va 50 nafar 40-44 yoshdagи ayollar (2-gurux). Taqqossalsh guruxiga 30 nafar erta reproduktiv yoshdagи ayollar kiritildi. Barcha ayollarda umumklinik, laborator va instrumental tadqiqot usullari qo'llanildi. Ayollarda tuxumdonlar zaxirasini aniqlash maqsadida antimyuller gormoni miqdori hamda tuxumdonlarida antral follikulalar sonini sanash o'tkazildi.

Natijalar. Tuxumdon zaxirasining biokimiyoviy markeri AMGning tarkibi ayollarning 55% da 2,7 baravar, 45% ayollarda esa 3,1 baravar past miqdorda aniqlandi. Tuxumdonlar zaxirasining exografik markeri, AFSning miqdori 55% ayollarda 2,2 baravarga, 45% ayollarda esa 2,4 baravarga pasayganligi aniqlandi. 36 yoshdan 39 yoshgacha bo'lgan ayollarda - 30% hollarda va 40 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan ayollarda 45% gacha tuxumdon zahirasining kamayganligi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari vaziyatni o'ta jiddiy deb baholashga imkon beradi, chunki kech reproduktiv yoshdagи ayollarda tuxumdonlar zaxirasining markerlaridan AMGning tarkibi 55% ayollarda 2,7 baravar, 45% ayollarda esa 3,1 baravarga, AFSning miqdori 55% ayollarda 2,2 baravarga, 45% ayollarda 2,4 baravarga pasayganligi aniqlandi. Ushbu holat, bu toifadagi ayollarda fertillikni tiklash uchun tuxumdonlar zaxirasini yaxshilashning tabaqalashtirilgan innovatsion usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: kech reproduktiv yosh, tuxumdonlar zaxirasi, antimyuller gormon, antral follikulalar soni

СОСТОЯНИЕ ОВАРИАЛЬНОГО РЕЗЕРВА У ЖЕНЩИН ПОЗДНЕГО РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА

X.Z. Axmedjanova, X.N. Tursunova, F.I. Shukurov

Ташкентская медицинская академия

✓ Резюме

Цель: оценить состояние овариального резерва у женщин позднего репродуктивного возраста.

Материал и методы. Обследовано 130 женщин позднего репродуктивного возраста. В зависимости от возраста пациентки были разделены на 2 группы: 50 женщин в возрасте 36-39 лет (1-я группа) и 50 женщин в возрасте 40-44 лет (2-я группа). Группу сравнения составили 30 женщин раннего репродуктивного возраста с нормальным овариальным резервом. Всем пациенткам был проведен комплекс общеклинических, лабораторных и инструментальных исследований. Для оценки состояния овариального резерва всем пациенткам проводили определение концентрации антимюллерова гормона в сыворотке крови и подсчет количества антравальных фолликулов в каждом яичнике.

Результаты. Установлено, что содержание биохимического маркера овариальных резерва АМГ, у 55% женщин снижено в 2,7 раза, у 45% женщин - в 3,1 раза. Установлено уменьшение эхографического маркера овариального резерва КАФ у 55% женщин в 2,2 раза и в 2,4 раза у 45% женщин.

Заключение. Результаты исследования позволяют оценить ситуацию как крайне серьезную, так как среди маркеров овариальных резервов у женщин позднего репродуктивного возраста содержание АМГ снизились в 2,7 раза у 55% женщин, в 3,1 раза у



45% женщин, а содержание АФС в 2,2 раза у 55% женщин, а у 45% женщин установлено, что оно уменьшилось в 2,4 раза. Сложившаяся ситуация требует разработки дифференцированных инновационных методов повышения овариального резерва с целью восстановления fertильности у данной категории женщин.

Ключевые слова: поздний репродуктивный возраст, овариальный резерв, антимюллеровский гормон, количества антравальных фолликулов,

STATE OF OVARIAN RESERVE IN WOMEN OF LATE REPRODUCTIVE AGE

Kh.Z. Akhmedzhanova, X.N. Tursunova, F.I. Shukurov

Tashkent Medical Academy

✓ *Resume*

Objective: to assess the state of the ovarian reserve in women of late reproductive age and to develop innovative ways to restore fertility.

Material and methods. 130 women of late reproductive age were examined. Depending on the age, the patients were divided into 2 groups: 50 women aged 36-39 years (Group 1) and 50 women aged 40-44 years (Group 2). The comparison group consisted of 30 women of early reproductive age with normal ovarian reserve. All patients underwent a complex of general clinical, laboratory and instrumental studies. To assess the state of the ovarian reserve, all patients underwent determination of the concentration of anti-Mullerian hormone in the blood serum and counting the number of antral follicles in each ovary.

Results. It was found that the content of the biochemical marker of ovarian reserve AMH was reduced by 2.7 times in 55% of women, and by 3.1 times in 45% of women. A decrease in the echographic marker of AFC ovarian reserve was found in 55% of women by 2.2 times and by 2.4 times in 45% of women.

Conclusion. The results of the study allow us to assess the situation as extremely serious, since among the markers of ovarian reserves in women of late reproductive age, the content of AMH increased by 2.7 times in 55% of women, by 3.1 times in 45% of women, and the content of AFC by 2.2 times in 55% of women, and in 45% of women it was found that it decreased by 2.4 times. The current situation requires the development of differentiated innovative methods to increase the ovarian reserve in order to restore fertility in this category of women.

Key words: late reproductive age, ovarian reserve, anti-Müllerian hormone, antral follicle count

Dolzarbligi

Zamonaviy reproduktologiyada kech reproduktiv yoshli ayollardagi bepushtlik muammosi dolzarbligicha qolmoqda [1,2]. Keyingi yillarda butun dunyoda bepushtlikdan aziyat chekayotgan kech reproduktiv yoshdagи ayollar soni ortib bormoqda [3]. Zamonaviy sharoitda 65% ayollar 30-35 yoshdan o'tgandan keyingina generativ funksiyasini amalga oshirish masalasiiga kirishmoqda [4].

Reproduktiv rejalarni amalga oshirishdagi to'siqlardan biri yosh omili bo'lib, u taxminan 35 yoshdan boshlab, har bir keyingi yilda ayolning ona bo'lish qobiliyatini bosqichma-bosqich cheklaydi. Bu tuxumdonlar zahirasining yoshga bog'liq kamayishi bilan bog'liqidir [5,6].

Tuxumdonlar zahirasi - bu tuxumdonlar follikulyar hovuzining hajmini va ulardagi tuxum hujayralarining sifatini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, yoshi o'tishi bilan kamayib, ayolning reproduktiv funksiyasi holatini ifodalaydi [7,8]. Tuxumdonlar zahirasi deganda tuxumdonlarning funksional zaxirasini tushunish kerak bo'ladi, bu to'laqonli tuxum xujayrani o'zida tutgan follikulani rivojlantirish qobiliyatini belgilaydi [9,10].

Tuxumdonlarining zahirasi pasayishi bilan bog'liq bepusht kech reproduktiv yoshdagi ayollarda fertillikni tiklash masalasi zamонави ginekologiyaning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir.

Bugungi kunda kech reproduktiv yoshdagи ayollarda tuxumdonlar zahirasining holati to‘g‘risida yakuniy tushuncha yo‘qligi, hamda ushbu yoshdagи ayollarda reproduktiv funksiyani tiklash uchun hozirgi kunga qadar qo‘llanililib kelayotgan usullarning past samaradorligini hisobga olib mazkur ayollarda fertillikni tiklashning innovatsion usularini ishlab chiqish zarurligidan dalolat beradi.

Talqiqotning maqsadi turli kech reproduktiv yoshdagи ayollarda tuxumdonlar zahirasining holatini qiyosiy baholashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari

Tadqiqotga 130 nafar kech reproduktiv yoshdagagi ayollar kiritildi. Asosiy guruxga turli kech reproduktiv yosh bosqichidagini e'tiborga olib 2 guruxga bo'lindi: 50 nafar 36-39 yoshdagagi ayollar (1-gurux) va 50 nafar 40-44 yoshdagagi ayollar (2-gurux). Taqqoslash guruxini 30 nafar erta reproduktiv yoshdagagi ayollar tashkil etdi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari: 36 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan ayollar, pregravidar oldingi maslahatlar (ayollarning tug'ish rejalar), ikkala bachadon naychlarining ochiqligi.

Tadqiqotga kiritmaslik mezonlariga esa, reproduktiv yoshda bo'Imagan, boshqa raqobatbardosh ginekologik patologiyasining mayjudligi, tuxumdonlar zaxirasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan chanoq a'zolarida o'tkazilgan jarrohlik aralashuvlar. Barcha ayollarda umumklinik, laborator va instrumental tadqiqotlar o'tkazildi. Gormonal tadqiqotlar MINDRAY MR-96A (Germaniya) immunoanalizatorida immunoferment usulida «Alkor Bio» (Rossiya), «Beckman coulter» (AQSh), «DRG Diagnostics» (Germaniya) va «Hoffman La Roch» (Ishveysariya) firmalari to'plamidan foydalanilgan holda o'tkazildi. Chanoq a'zolari ultratovush tekshiruvi SAMSUNG Madison Accuvix XQ (Koreya) apparatida transabdominal va transvaginal 5 MGs.li konveksli datchiklardan foydalangan holda o'tkazildi.

Tuxumdonlar zaxirasini baholashda uning ikkita xayz sikliga bog'liqmas markerlaridan antimyuller gormonini aniqlash va antral follikulalarni sanash orqali amalga oshirildi.

Olingen natijalarini statistik qayta ishlash Statistica for Windows 7.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Ma'lumotlar $M \pm m$ sifatida taqdim etiladi. $p < 0,05$ ga to'g'ri keladigan farqlar statistik ahamiyatga ega deb hisoblandi.

Natijalar va tahlillar

Tadqiqotga kiritgan ayollarning o'rtacha yoshi $30,5 \pm 0,5$ ni tashkil etdi. Ayollarda xayz ko'rish funksiyasini o'rganilganda, birinchi hayz ko'rish(menarche)ning o'rtacha yoshi $13 \pm 0,5$ yoshni, hayz keladigan kunlarning davomiyligi 2-3 kundan iborat ekanligi aniqlandi. Ayollarning 34,4% bachadon ortiqlarida jarrohlik aralashuvlari o'tkazilgan, 44,7% - yallig'lanish kasalliklarini o'tkazganligi aniqlandi. Tadqiqotga kiritilgan ko'pchilik ayollarning reproduktiv tarixi o'rganilganda u ko'pchiligidagi irlashgan akusherlik va ginekologik anamnezga moyil ekanligi e'tiborni tortdi jumladan: 24,7% ayollarda - homila muddatiga yetmasligi, 13,4% - sun'iy homila tushirish gan, 18,9% - rivojlanmagan homiladorlik kuzatilgan. Birlamchi bepushtlik bilan ayollar 62,7%, ikkilamchi bepushtlik - 37,3% ayollarda kuzatilgan.

Gormonal tadqiqotlar natijalarini har tomonlama tahlil qilish bemorlarning turli guruhlari o'rtasida bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha farqlar mavjudlini ko'rsatdi. Ikkala guruhdagi ayollarda LG ning past darajasi aniqlanib, guruxlarda mos ravishda $8,6 \pm 0,41$ ME/l va $7,8 \pm 0,38$ ME/l.ni tashkil etdi. Ikkala guruhdagi bemorlarda ham FSGning yuqori miqdori aniqlanib, guruxlarda mos ravishda $13,7 \pm 0,14$ ME/l va $15,2 \pm 0,16$ ME/l.ni tashkil qildi. Nazorat guruhi ko'rsatkichlari bilan solishtirganda har ikkala guruh ayollarida ham, estradiol (E2) miqdori mos ravishda past $87,6 \pm 12,1$ pg/ml va $82,4 \pm 12,2$ pg/ml.ni ($p < 0,001$) tashkil etdi. Progesteron gormoni darajasi ham barcha ayollarda sezilarli darajada past ya'ni, guruxlarda mos ravishda $1,0 \pm 0,65$ ng/ml va $1,3 \pm 0,65$ ng/ml.da aniqlandi ($p < 0,01$) (jadvalga qara).

Jadval 1

Kech reproduktiv yoshdagagi ayollarda gormonlar miqdoriy ko'rsatkichlarining holati, $M \pm m$

Gormonlar	I-gurux, n=50	II-gurux, n=50	Taqqoslash guruxi (n=30)
FSG ME/l	$13,4 \pm 0,33^{*^{^\wedge\wedge}}$	$15,2 \pm 0,25^{***}$	$9,8 \pm 0,21$
LG ME/l	$7,7 \pm 0,41^{\wedge\wedge}$	$8,6 \pm 0,32^{***}$	$10,5 \pm 0,28$
E ₂ (pg/ml)	$88,3 \pm 0,01^{***^{^\wedge\wedge}}$	$97,9 \pm 5,87^{**^{\wedge}}$	$116,1 \pm 14,7$
Progesteron (ng/ml)	$2,4 \pm 0,09^{***^{^\wedge\wedge}}$	$2,7 \pm 0,09^{***^{^\wedge\wedge}}$	$0,6 \pm 0,17$
T (ng/ml)	$0,80 \pm 0,07^{*^{^\wedge\wedge}}$	$0,90 \pm 0,07^{*^{^\wedge\wedge}}$	$1,8 \pm 0,10$

Izox: * - I-сурх аёллари ко'rsatkichlarga nisbatan ишончли farqli (* - $P < 0,05$, - *** - $P < 0,001$)

^ - taqqoslash guruxi ko'rsatkichlariga nisbatan ишончли farqli (^ - $P < 0,05$, ^ - $P < 0,01$, ^ - $P < 0,001$)


Barcha ayollarda tuxumdonlar zaxirasi darajasini ko'rsatuvchi ikki siklga bog'liqmas biokimiyoviy va exografik markerlaridan, antimyuller gormoni (AMG) va antral follikulalar soni(AFS)ni sanashni xayzning 1-3 kunlarida o'tkazildi.

Tuxumdonlar zaxirasining biokimyoiy markeri – AMGning miqdori ikkala guruxda ham juda past miqdorda aniqlanib, guruxlarda mos ravishda $0,9 \pm 0,10$ va $0,8 \pm 0,08$ ng/ml tashkil etdi.

50 (75,0%) nafar 36-39 yoshdagи I-guruh ayollarda tuxumdonlar zahirasining exografik ko'rsatkichlarini baholashda tuxumdonlarning o'rtacha hajmi $5,2 \pm 0,51$ sm³, antral follikular soni $6,0 \pm 0,65$, follikula maksimal diametri 5,5 mm dan 6 mm.ni (o'rtacha $5,8 \pm 0,12$ mm) tashkil etdi. Ikkala guruhdagi barcha ayollarda ovulyatsiya belgilari aniqlanmadi.

40-44 yoshdagи II- gurux ayollarning 45%da antral follikular soni 1,6 martaga kamaygan va o'rtacha $5,0 \pm 0,14$ ni tashkil etdi va tuxumdonlar hajmining o'zgarishi taqqoslash guruhidagi bemorlarga nisbatan 1,4 baravar kam $5,0 \pm 0,34$ sm³ tashkil etdi. Follikulaning diametri $6,0 \pm 0,33$ mm.ni tashkil etdi.

Bemorlarning 83%da hayz davrining ikkinchi bosqichida ekografik ko'ruvda dominant follikula topilmadi va ovulyatsiya belgilari aniqlanmadi. Taqqoslash guruxidagi bemorlarning 16%da o'z vaqtida ovulyatsiya kuzatildi (rasmga qarang).



Rasm. Kech reproduktiv yoshdagи ayollarda tuxumdonlar zaxirasining ko'rsatkichlari, M±m

Tadqiqotning asosiy guruxiga kiritilgan 100 nafar kech reproduktiv yoshdagи ayollar tuxumdonlar zaxirasini baholash ulardan 55 (55%) nafarida past tuxumdonlar zaxirasi ya'ni, xayz sikl davomiyligi - 24 kun, antimyuller gormoni miqdori $<0,90$ ng/ml, tuxumdonlar hajmi $5,2 \pm 0,51$ sm³, antral follikulalar soni <6 har bir tuxumdonda aniqlandi. 45 (45%) nafar ayollarda esa o'ta past tuxumdonlar zaxirasi ya'ni, xayz sikl davomiyligi -23 kun, antimyullerov gormon miqdori $<0,80$ ng/ml, tuxumdonlar hajmi $5,0 \pm 0,14$ sm³, antral follikulalar soni <5 har bir tuxumdonda aniqlandi.

Tuxumdon zaxirasining biokimyoiy markeri AMGning tarkibi ayollarning 55% da 2,7 baravar, 45% ayollarda esa 3,1 baravar past miqdorda aniqlandi. Tuxumdonlar zaxirasining exografik markeri, AFSning miqdori 55% ayollarda 2,2 baravarga, 45% ayollarda esa 2,4 baravarga pasayganligi aniqlandi. 36 yoshdan 40 yoshgacha bo'lган ayollarda - 30% hollarda va 40 yoshdan 44 yoshgacha bo'lган ayolarda 45% gacha tuxumdon zahirasining kamayganligi aniqlandi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari ushbu toifaga kiruvchi ayollarda vaziyatni o'ta jiddiy deb baholashga asos bo'la oladi, chunki kech reproduktiv yoshdagи ayollarning 55% da AMG darajasi hamda 35% da AFS juda past darajada ekanligi aniqlandi, bu ularda tuxumdon zahirasining sezilarli darajada qariyib 4 baravarga kamayib ketganligidan dalolat beradi. Ushbu holat, bu toifadagi ayollarda fertillikni tiklash uchun tuxumdonlar zaxirasini yaxshilashning tabaqlashtirilgan innovatsion usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Kech reproduktiv yoshdagи ayollarda fertillikni tiklash samaradorligi tuxumdonlar zahirasining holati bilan belgilanadi va tuxumdonlarni zaxirasini yangilashga qratilgan yangi innovatsion usullarni izlab topishni taqozo etadi.

Kech reproduktiv yoshdagи bemorlarda tuxumdonlar zahirasini baholash tuxumdonlar hajmining mos ravishda $5,2 \pm 0,51$ sm³ va $5,0 \pm 0,14$ sm³ ga kamayganligini ko'rsatdi, AFS miqdori kamaygan guruhlarda - $6,0 \pm 0,65$ va $5,0 \pm 0,62$, mos ravishda, guruhlarda, ayollarning 55% da, past AMG tarkibi bemorlarning 45% da 1,2 baravar past va juda past AMG 1,4 marta aniqlandi - $1,0 \pm 0,04$ ng / ml. 36 yoshgacha



bo‘lgan ayollarda tuxumdonning normal zahirasi 76%, 36 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan ayollarda - atigi 30% hollarda va 40 yoshdan oshgan barcha ayolarda tuxumdon zahirasining kamayishi yoki o‘ta pastligi aniqlangan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari vaziyatni o‘ta jiddiy deb baholashga imkon beradi, chunki kech reproduktiv yoshdagи ayollarda tuxumdonlar zaxirasining markerlaridan AMGning tarkibi 55% ayollarda 2,7 baravar, 45% ayollarda esa 3,1 baravarga, AFSning miqdori 55% ayollarda 2,2 baravarga, 45% ayollarda 2,4 baravarga pasayganligi aniqlandi. Ushbu holat, bu toifadagi ayollarda fertillikni tiklash uchun tuxumdonlar zaxirasini yaxshilashning tabaqalashtirilgan innovatsion usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- Гриценко И.А. Системный подход к восстановлению репродуктивного потенциала у женщин после хирургического снижения овариального резерва // Лечение и профилактика. – 2013.– № 2(6).– С. 18–23.
- Зенкина В.Г., Каредина В.С., Солодкова О.А., Михайлов А.О. Оценка овариального резерва у женщин в позднем репродуктивном периоде // Успехи современного естествознания. 2010. № 4.
- Корсак В.С. «Руководство по вспомогательным репродуктивным технологиям для врачей и эмбриологов», 2015. – С. 97
- Михель фон Вольфф, Петра Шутце «Гинекологическая эндокринология и репродуктивная медицина», 2017. – С. 239
- Шукuroв Ф.И., Джаббарова Ю.К. Оценка овариального резерва у женщин с бесплодием, обусловленным структурными патологиями яичников, перенесших эндохирургические операции // Вестник Ташкентской медицинской академии, 2016, №2. - С.106-108.
- Anti-Müllerian hormone and polycystic ovary syndrome. Łebkowska A, Kowalska I. Yendokrynat Pol.- 2017.-Vol.68(1). – R. 74–78.
- Shukurov F.I., Aypova F.M. The Role of Reproductive Surgery in Diagnostics and Treatment of Combined Pathologies in Women with Infertility Caused by Benign Structural Changes of Ovaries //American Journal of Medicine and Medical Sciences, Volume 9, Number 6 May–2019, P-210-212.
- Deb S. Quantifying effect of combined oral contraceptive pill on functional ovarian reserve as measured by serum anti-Mullerian hormone and small antral follicle count using three-dimensional ultrasound // Ultrasound. Obstet. Gynecol. - 2012. - Vol. 39. - P. 574–580.
- Polycystic Ovary Syndrome (PCOS), Diagnostic Criteria, and AMH// Bani Mohammad M, Majdi Seghinsara A. Asian Pac // J Cancer Prev. – 2017, Jan 1. – Vol. 18(1). – R. 17–21.
- Tannus S., Tan J. Son W. Y., Dahan M. H. Prevalence, clinical characteristics, and reproductive outcomes of polycystic ovary syndrome in older women referred for tertiary fertility care // Arch. Gynecol. Obstet. - 2018. - Vol. 297 (4). - P. 1037–1042.

Qabul qilingan sana 09.09.2022